

## MILLIY QADRIYATLARNING INSON MA'NAVIYATIGA TA'SIRI

**Ergasheva Muxlisa Abdulla qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

II bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadriyat tushunchasi, uning mohiyati, inson ma'naviyatiga ta'siri, milliy qadriyatning insoniyat tarixiga bog'liq holda ekanligi va inson ma'naviyati o'sishiga bergan ta'siri haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Qadriyat, insoniyat, ma'naviyat, komil inson, qadr-qimmat, ehtiyoj, aksiologiya, avlodlar, buyuklik va boshqalar.

Jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan, avlodlarga, o'z tengqurlariga o'rnak bo'la olgan inson eng ma'naviyatli, ma'rifatli insondir. Insondagi ma'naviyatni shakllantiruvchi uni qolibga solib turuvchi asosiy tushunchalardan biri-Qadriyatdir. Qadriyat tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma'noda turli sohalarda qo'llaniladi. Ushbu qadriyat tushunchasi ko'p asrlardan buyon xalqimiz qalbida, tilida saqlanib kelgan. Shuning uchun o'tgan asrlarda Qadriyatlar to'g'risida uning o'tmishini o'rganuvchi, bugungi kunga moslashtiruvchi maxsus fan bu-aksiologiyadir. Bu atama ilmiy bilimlar sohasiga o'tgan asrning ikkinchi yarmida nemis aksiologi E.Gertman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. G'arbda bu atama grekcha “qadriyat”, ”fan” va “ta’limot” tushunchalariga asoslanadi. Qadriyat tushunchasi buyum yoki narsalarning iqtisodiy qimmatini ifodalaydigan tushunchadan farq qiladi. Aksincha, qadriyat inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqealikning shakllari, narsalar, voqealar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblar qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan asosiy kategoriyadir.

Ma'naviyatning mag'zini (yadrosini) qadriyatlar tashkil etadi. Inson ma'naviyatini rivojlantiruvchi qadriyat har qanday hodisa, voqea yoki narsaning o'ziga xos xususiyati yoki xossasi emas balki, uning mohiyati, o'z navbatida borliqning u yoki bu obyektning yashashi, mavjud bo'lishi uchun zaruriy muhitdir. Qadriyatlarning jamiyat, millat hayotidagi o'rnini ijtimoiy xarakteriga qarab milliy va umuminsoniy, sinfiy yoki diniy, shuningdek kishilarning yosh va xususiyatiga xos bo'lgan qadriyatlarga bo'lish mumkin. Shuningdek, insonning qadr-qimmati, or-nomusi, milliy iftixor tuyg'usi, xalqqa, elga bo'lgan munosabati, milliy g'ururi, insoniyat, insonparvarlik tuyg'ularining aks ettishi milliy qadriyat deb ataladi. Milliy qadriyatlar har bir millat o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, asriy orzulari, amaldagi qonun-qoidalari, avlodlarga bo'lgan ishonch kundan-kun o'sib borayotgan milliy g'ururini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo'lib, o'sha millat bosib o'tgan har sohadagi taraqqiyoti jarayonida shakllangan milliy qadriyatlarning o'rnini beqiyos. Qay shaklda bo'lmasin rivojlanayotgan xalq, o'zini har jabhada dunyo yuziga tanitayotgan yurtning milliy qadriyati, o'tmishi, tarixi go'zal bo'ladi. Milliy qadriyatning har bir qadami, turi uning rivojlanishi insonning ma'naviyatiga ham juda katta ijobiy ta'sir o'tkazadi. Unib-o'sib kelayotgan yosh avlod o'sha millatning qadriyatlarini, an'alarini, o'tmishini hurmat qilsa, rivojlantirish uchun hissasini qo'shsa, urf-odatlarini har qadamda rivojlantirsa nafaqat insoniyatning o'zi balki, o'sha xalq, uning turmush tarzi ham tubdan o'zgaradi va sayqallanib boradi. Milliy qadriyatlarning har bir negizini o'zaro hurmat yuzasidan rivojlantirish lozim. Zero, milliy qadriyat inson ongiga, ma'naviyatiga, ma'rifiy dunyoqarashiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy qadriyatning negizini urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayram-sayllar, an'analar tashkil etadi. Insonparvarlik tuyg'ularini, mehr-oqibatni, o'zaro do'stona munosabatlarni milliylik rivojlantiradi va o'stiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, qadriyatlar, milliy qadriyat insonlar tomonidan rivojlantiriladigan va insonni rivojlantiradigan asosiy atamadir. Ular insonlarning ma'naviyatini tubdan o'zgartirib, yaxshilik sari yetaklab, insoniy qonun-qoidalarni aks ettiradigan muhim ijtimoiy hodisadir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. R.Mavlonova , O.Tòrayev, K.Xoliqberdiyev. Pedagogika Respublika oliy òquv yurtlarining boshlang‘ich ta’lim metodikasi fakultetlarining talablari, pedagogika litseylari va kollejlari òquvchilari uchun darslik /-toshkent :”òqituvchi"2002!
- 2.A.Musurmonova ,X.Ibragimova ,”Umumiy pedagogika”, Toshkent :yoshlar nashriyoti uyi .....